




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКАТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОКИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJBO KOTNOHASI | БЕЎТХИҚ ХУՅՈՒՔ ۛ ԽՈՐԾՈՒՄԻ | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

YOSHLARNING MA’NAVİY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O’RNI

Mutalov D.A.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada barkamol avlod tarbiyasida musiqaning o‘rni va ahamiyati, umuminsoniylik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizni yuksalishida ba’zi muammo va yechimlari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Barkamol avlod, shaxs, kamolot, ruhiy ozuqa, inson kamoloti, estetika, falsafa, tafakkur, ezgu fazilat, ma’naviy shakllanish, teran, joziba.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение музыки в воспитании зрелого поколения, некоторые проблемы и пути их решения в возникновении общечеловечности, национальных традиций и ценностей комментариі сделаны.

Ключевые слова: Совершенное поколение, личность, совершенство, духовное питание, человеческое совершенство, эстетика, философия, мышление, добродетель, духовное становление, глубина, обаяние.

Annotation: This article discusses the role and importance of music in the education of the mature generation, some problems and ways to solve them in the emergence of universal humanity, national traditions and values. Comments are made.

Key words: Perfect generation, personality, perfection, spiritual nourishment, human perfection, aesthetics, philosophy, thinking, virtue, spiritual formation, depth, charm.

Ma’lumki, vatanparvarlik tuyg‘usi shaxsda yoshlik yillaridan boshlanadi. Yoshlarda bu tuyg‘uni shakllantirish, boyitish, shuningdek, Vatan ravnaqi, xalq manfaati yo‘lida sidqidildan mehnat qilish ko‘nikmalarini hosil qilish o‘ta murakkab pedagogik jarayon [1].

Insonning ma'naviy kamolotida, unga ruhiy ozuqa berishda musiqaning o'zni beqiyosdir. Ko'ngilga yetib boradigan kuy-qo'shiqlar kishiga estetik zavq bag'ishlash bilan birga hordiq manbai hamdir. Ayniqsa, yaxshi musiqalarni tinglaganingizda qalbingiz orom olib, hayot tashvishlaridan chalg'ib, yangrayotgan kuyning sehrli olamiga g'arq bo'layotganingizni sezasiz.

Musika inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining hissiyotiga, estetik va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Go'zallikka bo'lgan intilishning rivojlanishiga zamin yaratadi. Sharq mutafakkirlari ming yillar avval musiqiy falsafa, musiqiy tarbiyaning inson kamolotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratganlar. Zero, chinakam musika va musiqiy asarlar yosh avlod ong-u tafakkurini boyitish, ular qalbida ezgu fazilatlarni shakllantirishi bilan bebahodir. Shu bois diltortar kuy-qo'shiqlarni, navolarni sevib tinglaymiz, ulardan zavq, huzur olamiz. Shu bilan birga, bizdan keyingi avlodlarga ham bebaho musiqiy merosimizni anglatishga, farzandlarimizni ham san'atga oshno qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Bugungi kunda jamiyatimizdagi eng muhim vazifalardan biri ma'naviy yetuk va barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Donishmandlar: – "Xalqning baxt-u saodati ularni to'g'ri tarbiyalashga bog'liq", degan fikrni bildirganlar. Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning eng katta yutuqlari va ularga bo'lgan yuksak e'tiborning sababi, ular mustaqillik mafkurasi bilan o'sib, shu ruhda shakllanmoqdalar. Shuning uchun eng asosiy e'tibor o'quvchi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, tafakkur va ma'naviy shakllanishiga qaratilmog'i kerak. Chunki Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini qurish mas'uliyati yoshlar zimmasiga yuklanganligini teran his etishlari lozim. O'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy ongini yuksaltirishda, iste'dodini har tomonlama kamol toptirishda musiqaning ham o'z o'zni bor.

Musika inson tarbiyasida salmoqli ahamiyatga ega bo'lib, u sehrli kuy-ohanglar, ajib tuyg'ular va hissiy kechinmalar olamini yaratadi. Musika

o‘zining betakror jozibasi bilan yoshlarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir etadi, ularning badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash kabi ulkan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Musiqa san’atining kuchidan mazmunli va samarali foydalanish har bir ustoz-san’atkorning muqaddas burchidir.

Xalqimiz azaldan o‘zining ma’naviy boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari hamda musiqa madaniyatining yuksakligi bilan jahon xalqlari orasida yetakchilik qilib kelgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, erk va huquqlarimiz, tilimiz, dinimiz, tariximiz, madaniyatimiz, san’atimiz, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni qayta anglash imkoni yaratildi. Endilikda Respublikamiz miqyosida musiqa ijrochiligi san’atini yanada rivojlantirish, uni kengrok yo‘lga qo‘yish maqsadida san’atsevar yoshlar va san’atkorlar o‘rtasida qator hayrli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Sharq musiqasi muammolariga bag‘ishlab Samarkandda o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalkaro musiqa festivali, “Zulfiyaxonim”, “Nihol” Davlat mukofotlari, shuningdek “Navro‘z sadolari” ko‘p ovozli ansambl va orkestrlari xalqaro festivali, xalq cholg‘ulari yo‘nalishi bo‘yicha “Ona yurt ohanglari” va Farrux Mirusmonov nomli “Yosh sozandalar” xalqaro tanlovlarining o‘tkazilishi hamda “O‘zbekiston Vatanim manim”, “O‘zbekiston qo‘shiq bayrami”, “Qalbmida Vatan madhi”, “Yagonasan, muqaddas Vatan” kabi Respublika qo‘shiq tanlovlari yoshlar orasida ijrochilik maktablarining shakllanishi va rivoj topishiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonimizda musiqa ta’lim- tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, musiqiy meros va qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Jahon musiqa madaniyatining milliy ma’naviyatimizga ijobiy ta’sir qilishini inkor qilib bo‘lmaydi. Biroq, musiqa ta’limi jarayonida boshka xalqlar musiqiy-

pedagogik merosining ijobiy namunalaridan qanchalik foydalanmaylik, o'zbek milliy musiqiy qadriyatlarimiz ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qolaveradi.

Yosh avlodda imon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, singari hislatlarni shakllantirishda umuminsoniy hamda milliy an'ana va qadriyatlardan foydalanish yoshlarning ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutadi.

“Musiqi san’ati” jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida yoshlarni tarbiyalash va ma'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Hozirda ham, ya'ni fan va texnika taraqqiyot etgan davrda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortmoqda.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida keng tarqalgan, ularning ma'naviy qiyofasiga, axloqiga zid bo'lgan turli xorijiy musiqalarning ommalashuviga qarshi kurashish zaruriyati tug'ildi. Bu esa mumtoz, milliy musiqiy kadriyatlarimizni o'rganish, yoshlarda musiqaga, umuman, san'atga bo'lgan estetik munosabatlarni tarkib toptirish, milliy musiqa orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishni taqozo etadi.

Bilamizki, fan va texnika rivoji taraqqiyot qamrovining tezlashuvi, inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlarning ko'payishi uning aqlini takomillashtirsada, hissiyotlarini ma'lum darajada qashshoqlashtirishi mumkin. Shu boisdan mamlakatimizda shaxsni har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun barcha tadbirlar qo'llanilmoqda.

Muxtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa g'oyat muhim o'rin tutishini inobatga olib, O'zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi qator badiiy jamoalari o'z konsert repertuarlarini shu asosda boyitib borishni amalga oshirmoqdalar. (“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli qarori).

Musiqqa insonning ongiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli u inson uchun ma'naviy go'zallik manbayi bo'lishi bilan birga, uni salbiy odatlarga yo'naltirishi, umidsizlikka solishi, bag'ritosh va xudbin qilib qo'yishi ham mumkin. Bular esa insonning qanday musiqani tinglashi va uning mohiyatini qanchalik to'g'ri tushunishiga bog'liqdir. Shuning uchun pedagogik repertuar tanlashda o'quvchilarga shunday asarlar berish kerak-ki, u uning o'zi va tinglovchi qalbidan uzoq vaqtgacha joy olsin, diliga yaqin bo'lsin. O'rganilayotgan asar faqat ijro mahoratini oshirish uchun emas, balki o'quvchi onggi va tafakkurini shakllantirishga xizmat qilsin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, milliy musiqamiz jahon musiqqa madaniyati rivojining barcha bosqichlarida o'zining maftunkorligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan insoniyat ongiga ma'naviy ozuqa sifatida ularga estetik zavq berib keldi. Shunday ekan, yoshlarimiz ma'naviy dunyosini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo'lib ulg'ayishlarida "musiqqa" hamisha beqiyos tarbiya manbayi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xalq cholg'ulari ijrochiligining zamonaviy omillari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining maqolalar to'plami. 63 b. Toshkent 2015-yil.

2. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi – T.: O'qituvchi. 1995-yil.

3. Allanbayev R. O. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ // Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 7. – №. 8. – S. 94-100.

4. Allanbayev R. O. ПРОЦЕСС ОБНОВЛЕНИЯ ТРАДИЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОПЕРНОМ ТЕАТРЕ // Проблемы современной науки и образования. 2021. – №. 3 (160). – S. 71-74.

5.Allanbayev R. O. ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЕ ИСКУССТВО КАРАКАЛПАКСКОГО ЭПОСА: ИСТОРИЯ, РАЗВИТИЕ //Проблемы современной науки и образования. – 2022. – №. 7 (176). – S. 54-57.

6.AllanbayevR.O. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE. – 2018. – S. 12-15.

7.Allanbayev R.O. Musiqali teatr aktyorlarining shakllanishida ovoz ustida ishlashning o'рни //Molodoy ucheniy. – 2019. – №. 24. – S. 523-525.

8.ALLANBAYEV R. YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI //O'zDSMI xabarlari—2018/1 (5). – 2018.

1. 9.Allanbayev R. DONI ZOKIROV NOMIDAGI “O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI” FAOLIYATINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 1. – №. Conference DSMI. – S. 10-14.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPA AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181